



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT
INSTITUTI**

**Musiqashunos olim, san’atshunoslik fanlari doktori,
professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga
bag‘ishlangan**

**“O‘ZBEK MUSIQIY MEROSINING TA’LIM
TIZIMIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI”**

Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

2023-yil 28-noyabr

TOSHKENT-2023

UDK 04
KBK 93
O' 25

“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati” mavzuidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami [Matn]: materiallar to‘plami. – T.: O‘zDSMI, 2023. – 234 bet.

Mas’ul muharrir:

Xudoyev G‘anijon – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi professori v.b., san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Tahrir kengashi a‘zolari:

Turg‘unova Nasiba – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi» kafedrasi dotsenti, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Yakubov Zohidjon – *O‘zRFA San’atshunoslik instituti bosh mutaxassisi, musiqashunos*

Xudoyqulova Nilufar – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi*

Mazkur to‘plamdan joy olgan ilmiy maqolalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2023-yil 27-apreldagi 39-son bayoni hamda O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 2-maydagi 118-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “2023-yil uchun mo‘ljallangan xalqaro va respublika tadbirlari rejasi”ga muvofiq, 2023-yil 28-noyabr kuni O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” davlat dasturi asosida san’atshunoslik fanlar doktori, professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga bag‘ishlangan **“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati”** nomli Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasidagi materiallar asosida tayyorlandi.

To‘plamga kiritilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va aniqligi uchun mualliflar mas’ul.

2. Baratov P. O‘zbekiston tabiiy geografiyasi. T.: ”O‘qituvchi”. 1996.-264b.
3. Rahimbekov R. U., Dontsova Z. N. O‘rta Osiyo tabiatini geografik o‘rganish tarixi. “O‘qituvchi”. T.: 1982.-200 b.
4. Safarov U.X., Saydamatov F.R. O‘lkashunoslik. Uslubiy qo‘llanma. T.: TDPU., “ZUXRA BARAKA BEZNIS” bosmaxonasi. 2022 y.
5. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T.: O‘zME, 2004-2009.
6. Internet saytlari: www.ziyonet.uz;

FORTEPIANO IJROCHILIGIDA BADIY TALQIN

(A.Safarovning “Alla” asari misolida)

Nilufar XUDOYQULOVA,

*O‘zDSMI “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi”
kafedrasi o‘qituvchisi.*

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada fortepiano cholg‘usida ifodali ijro mahoratning ahamiyati haqida so‘z yuritilgan. Shuningdek, maqolada fortepiano musiqasi janrlarida yaratilgan asarlarning e‘tiborga molik jihatlarini inobatga olgan holda interpritatsiyaining ahamiyati haqida bayon etilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Agogika, kantilena, pyesa, etyud, polifoniya, legato, dinamika, pedal.*

***Аннотация.** В данной статье говорится о важности выразительного исполнения на фортепиано. Также в статье описывается важность интерпретации произведений, созданных в жанрах фортепианной музыки.*

***Ключевые слова:** Агогика, кантилена, пьеса, этюд, полифония, легато, динамика, педаль.*

***Abstract.** This article talks about the importance of expressive piano performance. The article also describes the importance of interpreting works created in the genres of piano music.*

***Key words:** agogics, cantilena, piece, etude, polyphony, legato, dynamics, pedal.*

Ma’lumki, musiqa jozibadorligi bilan tinglovchini maftun qilish, qat’iyatli ohanglari bilan hushyorlikka chaqirish, sho‘x sadolari bilan zavq berish, hissiyotga to‘la kuylari bilan hayajonga solish xususiyatlariga ega. Fortepiano cholg‘usida musiqiy obrazni ishonchli gavdalantira oladigan tovushlarni hosil qila bilish ijrochining qobiliyati, mahoratiga bog‘liq. Taniqli rus fortepiano ijrochisi G.G.Neygauz fikricha “tovush hosil qilish va uni ustida ishlash usullarini egallash fortepiano ijrochisi zimmasiga tushadigan eng qiyin va mashaqqatli mehnatdir, chunki u ijrochining eshita bilish va aqliy sifatlari bilan chambarchas bog‘liqdir” [1. 56]. Shuning uchun fortepiano mashg‘ulotlarida musiqiy asarning matnini tahlil qilishda tovush hosil qilish ustida ishlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Fortepiano ijrochisi mahoratini rivojlantirishda texnik mashqlarni muntazam ravishda chalib borish, ko‘nikma va malakalarni oshirish bilan birga, tovush hosil qilish usullari orqali badiiy obrazlar tasavvurini to‘g‘ri his etgan holda ifodali ijro mahoratini egallash hisoblanadi.

Fortepiano cholg‘usining tovushi puflama va torli cholg‘ularga nisbatan tuzulishiga ko‘ra qisqa va davomiy emas. Lekin, shu bilan birga, uning imkoniyatlari nihoyatda keng. Unda yengil, salmoqli, jozibador, o‘tkir, kuychan, qisqa kabi tovushlarni hosil qilish mumkinligi mutaxassislariga yaxshi ayon. Xatto, fortepiano

cholgʻusida turli cholgʻular tovushlarini ham oʻziga xos taqlidiy ijro orqali ifodalab berish mumkin. Albatta, buning uchun ijrochi tovush hosil qilish va uning choʻzimini yetarli darajada tuta bilish koʻnikma va malakasiga ega boʻlsa, fortepiano cholgʻusi ohanglarining turli-tuman jilosini tinglovchilarga yetkazib bera oladi. Forteplano cholgʻusining boy, serjilo ohanglarini sadolantirishda nafaqat psixoemotsional holat, balki fiziologik xususiyatlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ijrochi qoʻllarining yumshoq, siqilmagan gavda, qoʻl va bilaklar, barmoq uchlari bilan klaviatura “tubini” his qilish kabi oʻziga xos xususiyatlar toʻgʻri shakllanganligi tovush hosil qilish jarayonining eng muhim jihatlaridan biridir. Forteplano boshqa cholgʻularga nisbatan qisqa tovush hosil qilish xususiyatiga ega ekanligini yuqorida taʼkidlangan edik. Unda ohangdor tovush taassurotiga kuyning ohang yoʻlini mohirona ijrosi bilan erishiladi. Bunday sifatga bir tovushni keyingisiga turtkisiz, *legatoni* ichki sezgi bilan his qilgan holda erishish mumkin. Shu oʻrinda *agogika*¹⁰⁴, yaʼni surʼat meʼyoridan chetga chiqmasdan metro-ritmik oʻzgarishlar juda katta ahamiyatga egadir.

Asarni oʻzlashtirish jarayonidagi eng muhim jihat musiqiy *intonatsiyadir*. Tovush va intonatsiya bu asosiy ifoda vositalari hisoblanib, ular orqali musiqiy asarning badiiy obrazi ochib beriladi. Intonatsiya musiqaning mohiyati boʻlib, fortepiano ijrosining barcha elementlari bilan bevosita bogʻliq. Musiqiy intonatsiya deganda tovushlarni alohida-alohida ajratib emas, balki ularni ichki eshitish qobiliyati orqali *kantilena*¹⁰⁵ tarzida bir-biriga bogʻlab ijro etish va yaxlit jumlani hosil qilish, shu yoʻsinda badiiy obrazni ochib berish tushuniladi. Ijrochi musiqa “notalar yigʻindisi”ni emas, balki bir-biriga uzviy bogʻlangan notalar orqali aks etadigan “jonli” kuy ekanligini doimo yodda tutishi lozim. Demak, tovush ustida ishlash va intonatsiya bir-biriga bevosita bogʻliq ekan. Bu jarayonda gorizontal, vertikal kuy yoʻllarini eshita bilish qobiliyatini rivojlantirish esa yaxshi intonatsiyaning asosidir.

Misol tariqasida ushbu qoʻllanmada keltirilgan A.Safarovning “Alla” kuyini koʻrib chiqamiz. Maʼlumki, oʻzbek musiqiy folklor sanʼatining eng qadimgi janrlaridan biri boʻlgan “Alla” aytimi hozirga qadar asl maqsadi va maʼnosini yoʻqotmagan holda, qoʻshiq, cholgʻu ijrochiligi janrlarida ham oʻz ifodasini topmoqda. Xususan, uning “beshik vaziyatidan” holi, “sahnaviy” tarzda ijro etiladigan turlari mavjuddir¹⁰⁶. Mazkur janrning oʻziga xos “mazmuni”, yaʼni onaning bolaga boʻlgan mehru-muhabbati, uning baxtli kelajagi haqidagi orzulari, samimiy tilaklari, shukronalik tuygʻusi, shuningdek, dardli alami, oʻkinch-iztiroblari, orzu-armonlari kabi his-tuygʻulari goʻzal ohanglarda jilolangan “sahnaviy” “Alla” qoʻshigʻi Oʻzbekiston xalq artistlari, ustoz xonanda Habiba Oxunova va ustoz sozanda va bastakor Abduhoshim Ismoilovlar ijro etgan namunalarda oʻz ifodasini topgan. “Alla”larga xos boʻlgan mayin, mayus

¹⁰⁴ Agogika – (yunon. – *agoge* – ergashtirmoq) ifodali ijro maqsadida asarda koʻrsatilgan tempdan ogʻish. Qarang: Музыкально энциклопедический словарь. – М.: “Советская энциклопедия”. 1990. – С. 17. [3. 17].

¹⁰⁵ Kantilena – (lot. *cantilena* – ashula) – kuyning va umuman musiqaning (musiqiy asarning – *N.X*) yoqimli, ravon ijrosi; izchil *legato* usulida tuzilgan tovushlar yoʻnalishi.[4. 54].

¹⁰⁶ Ibrohimov O.A. Oʻzbek xalq musiqa ijodi. – T.: Tipografiya TIPO im. Ibn Sino. 1994. – 39 b. [5. 39].

ohanglardan ta'sirlangan holda ijod etilgan A.Safarovning "Alla" asarida ham 4/4 o'lchovdagi oxista sur'at orqali shu kabi ona his-tuyg'ulari ifodalangan:

Andantino

Polifonik usulda yaratilgan mazkur pyesa ustida ishlash jarayonida har bir tovush yo'lining uzluksiz *legato* ijrosi talab etiladi. Ovozlarining mutlaq *legatosiga* o'ng va chap qo'llarni alohida chalib mashq qilish bilan erishiladi. Har bir ovoz bir-biridan "turtkisiz" o'tishni nazorat qilish bilan "kuylayotgan" fortepiano tasavvurini uyg'otish lozim.

Asarning o'rta qismida chap va o'ng qo'l "suhbati" (dialogi)ni obrazli taqqoslash va bu obrazlar dialogi sekin-asta *crescendo* orqali hayajonli avjga qadar alohida e'tibor berib ijro etish zarur.

Ped. * Ped. * Ped. * Ped. * Ped. * Ped. * Ped. * Ped.



Chuqur bas, oʻrta ovozlarning oʻzaro almashinib kelishi, intonatsiyalarni badiiy obraz bilan bogʻlash orqali asar mazmun-mohiyati ochib beriladi. Tovush sifati asarga mos gavda, qoʻl va barmoq harakatlari bilan bevosita bogʻliq holda matlub tovush hosil qilishda ijrochi doim mushaklarni his qilgan holda maʼqul pianistik harakatlarni “topa” bilishi juda muhim. Har bir ijrochining imkoniyati, salohiyati va mahorati, individual ijro uslubi va texnikasi inobatga olingan holda yuqoridagi tavsiyalar bilan asarga monand intonatsiyani hosil qilishda qisman boʻlsa-da, erishiladi.

Shu bilan birga alohida taʼkidlash lozimki, ijrochi tovushlarni toʻgʻri ifodalash imkoniyati (temp, ohanglar uygʻunligi, dinamika, pedal)ga ega boʻlsa-yu, asar jumllarining toʻgʻri intonatsiyasiga erishmasa, tinglovchiga asar mazmunini yetkazib bera olmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Нейгауз Г.Г. Об искусстве фортепианной игре. – М.: Музыка, 1987. – 241 с.
2. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. 3-jild. – T.: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020. – 687 b.
3. Музыкально энциклопедический словарь. М.: Советская энциклопедия, 1990. – 672 с.
4. Shomaxmudova B.V. Xor lugʻati. – T.: Musiqa, 2009. – 303 b.
5. Ibrohimov O., Xudoyev Gʻ. Musiqa tarixi. – T.: Barkamol fayz media, 2018. – 305 b.

К ВОПРОСУ ИЗУЧЕНИЯ ФОРТЕПИАННОГО КОНЦЕРТМЕЙСТЕРСКОГО ИСКУССТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

Лилия КАРЯКИНА,

*Преподаватель кафедры концертмейстерского мастерства
Государственной консерватории Узбекистана*

***Аннотация.** В статье рассматриваются основополагающие труды, посвященные становлению и развитию фортепианного концертмейстерского искусства. Автор статьи концентрирует внимание на работах М.Б.Касымовой, Р.Ш.Полтхановой и монографическом сборнике «Искусство концертмейстера». И приходит к выводу о научной и практической значимости этих трудов.*

***Ключевые слова:** вокалист, искусство, мастерство, становление, развитие музыкального исполнительства.*

Пианист-концертмейстер является ключевой фигурой во всех сферах музыкальной культуры, по сколько его деятельность является незаменимой